

## RAQAMLI KOMPETENTLIKNING TARIX DARSLARIDAGI AHAMIYATI

*Nomozov M.M.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti,  
tarix yo'nalishi 2- kurs magistratura talabasi*

*Nuraliyev X.X.*

*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti  
tarix yo'nalishi 2-kurs magistranti.*

**Tayanch so'zlar:** raqamlashtirish, axborot texnologiyalari, pandemiya, online ta'lim, zamonaviylashtirish.

**Ключевые слова:** цифровизация, информационные технологии, пандемия, онлайн-образование, модернизация.

**Key words:** digitalization, information technology, pandemic, online learning, modernization.

### **Резюме:**

Mazkur maqola jamiyat sohalaridagi ayrim muammalarga xususan ta'lim tizimida jarayonlarni va kamchiliklarga yutuqlari qiyinchiliklariga qaratilgan bo'lib bu sohalarni rivojlantirish va turli xil muammolarning yechimlari haqida ayrim mulahazalar berilgan.

### **Резюме:**

Данная статья посвящена некоторым проблемам в сферах жизни общества, особенно процессам и недостаткам системы образования.

### **Summary:**

This article focuses on some problems in certain areas of society, in particular, the processes and shortcomings in the education system, and provides some considerations on the development of these areas and solutions to various problems.

Rivojlanayotgan XXI asrda eng ko'p etibor berilayotgan sohalardan biri. Bu ta'lim tizimi va uni rivojlanish yangi va zamonaviy metodlar bilan taminlash bugungi kunning eng dolzarb muammalaridan biri hisoblanadi. Xususan bugungi rivojlanib borayotgan O'zbekiston va uning oliy va o'rta ta'limiga berayotgan etibori va islohatlari kundan kunga rivojlanib bormoqda. Xususan bunga quydagi murojatnoma misol bo'ladi O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2020 yil 25 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Muroja'atnomasida ham mamlakatimizda raqamli iqtisodning



rivojlanishi bo'yicha quyidagilarni aytib o'tdi: "Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida men yurtimizda 2020 yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili", deb nom berishni taklif etaman. "

Bu murajatnoma orqali ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish va uni rivojlantirishni nazarda tutgan bo'lib, oliy ta'limni raqamlashtirish va uni an'anaviy ta'lim tizimidagi turli xil muamolarni yechishga qaratilgan hisoblanadi 2020 yilda boshlangan va butun dunyo bo'ylab tarqalgan koronavirus pandemiyasi sababli turli xil sohalarga tasirini o'tkazmay qolmadi. Xususan ta'lim tizimiga juda katta ta'sir ko'rsatdi, talim tizimidagi xato va kamchiliklar yaqqol ko'rinib qoldi. Shuningdek maktab, o'rta va oliy ta'lim tizimini tubdan rivojlantirish va raqamlashtirishga bo'lgan ehtiyoj yanada oshdi, bu dunyo miqyosidagi muammo bo'lib qoldi. Bu muammoga O'zbekistonda ham jiddiy e'tibor berila boshladi. Bu sohani rivojlantirish uchun ishlar olib borildi. Bu jarayonda turli xil muammolarga duch kelmoqda.

Raqamli ta'lim formatida o'rganish va o'rgatish ancha qiyin bo'lganligi uchun barcha ta'lim turlari va shakllarni bu formatga o'tkazish doimo to'g'ri emas deb hisoblaymiz. Muammo o'rta va o'rta-maxsus ta'lim tayyorlayotgan yangi kadrlar ommaviy va muvaffaqiyatli ravishda an'anaviy ta'lim shaklida eski bozor sistemasi uchun moslashtirilganligida va bundan darhol bo'lmasada, asta-sekinlik bilan voz kechish payti kelgan deb hisoblaymiz. Axborot texnologiyalari bilan shug'ullanuvchilar barcha ishlovchilarning taxminan 1,2% ini tashkil qiladi. Eng samarali yo'l, bir avlod o'rtacha 25-30 yilda almashishini, texnologiyalar esa har 5-6 yilda yangilanishini e'tiborga olinsa, o'rta maktab davridan raqamli texnologiyalarga o'rgatish muhim deb hisoblaymiz. Demak, raqamli texnologiya ishtirokchilaridan hozirgiga nisbatan butunlay boshqacha kompetensiyalar talab qilinadi. Bunday holatli muammolar oliy ta'lim tizimida ham uchramoqda talabalarni ta'lim kompetentligini oshirish va ba'zi bir eskirib qolgan ta'lim jarayonlarini o'zgartirish va uni bugungi zamonga moslash bugungi kunning eng muhim muammolarida biri hisoblanadi.

Shu o'rinda prezidentimiz qarorlari bunga yechim bo'la oladi. «Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (PF-6079-son, 05.10.2020) asosida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy AKTni keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan

Bugungi kunga axborot texnologiya sohasini rivojlantirish dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu muammo har bir sohaga ta'sirini o'tkazmay qolmaydi, bular ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarga ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Prezident farmoni asosida ishlab chiqilgan «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasi yaqin yillarda raqamli savodsizlikka butunlay barham berish, texnologik asosni shakllantirish va malaka oshirish zaruriyatini tug'diradi.

Maktabgacha, maktab, o'rta va oliy ta'lim muassasalarida ta'limni barcha bosqichlarida o'zaro bog'liq kompetensiyalarni qo'llash bolalarda olgarmik fikrlashni rivojlantirish birinchi o'ringa qo'yishimiz kerak. Ta'lim jarayonining sifati kelajakda davlatning mutaxassislar bilan ta'minlanishiga muqarrar ravishda ta'sir qiladi va shuning uchun bu muammolarga alohida e'tibor qaratish lozim. Milliy ta'limni takomillashtirish jarayonida har yili zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati ortib bormoqda, ularning joriy etilishi ta'limni modernizatsiya va rivojlantirish, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish va ta'limni fanga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, bunday texnologiyalar asosan ta'lim faoliyatiga mavjud yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni, shuningdek ularning jamiyat va alohida ijtimoiy guruhlarga ta'sirini tahlil qilishni talab qiladi. Shu munosabat bilan o'quv jarayonini texnologiyalashtirish va uning ijtimoiy oqibatlarini o'rganish ilmiy tadqiqotning juda dolzarb yo'nalishi bo'lib ko'rinadi. Axborot inqilobi zamonaviy jamiyat hayotiga tez kirib, uning hayotining turli sohalari faoliyatini sezilarli darajada o'zgartirdi

Shu o'rinda aytib o'tish joizki masofaviy ta'lim jarayonlarini yaxshilash o'z o'rnida ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladi. Bu jarayonni boshqarish tegishli soha vakillari tomanidan kuzatilishi va axborot muhitini yaratish kerak. Bu o'rinda bugungi kunda axborot muhitini yaratish ishlari olib borilmoqda. Ta'lim muassasalarining yana bir muhim guruhi mintaqalarda intellektual markazlashtirish markazlari vazifasini bajarishi kerak bo'lgan universitetlar bo'ladi. Universitetlarga onlayn ta'lim jarayonlarini qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratishlari uchun takomillashtirilgan universitet funktsiyalari bilan ta'minlash muhimdir.

2022-yil yakunida "O'zbekistonda zamonaviy raqamli muhit" loyihasi tadqiqotchilari ish beruvchilar, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'qituvchilari va talabalari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalarini



taqdim etdi. So'rovda qatnashgan o'qituvchilarning yarmidan ko'pi va talabalarning deyarli 90 foizi onlayn ta'lim platformalari taqdim etayotgan imkoniyatlarni yuqori baholaydilar, ammo an'anaviy oliy ta'lim talabalar uchun ustuvor masala bo'lib qolmoqda

Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" g'oyasi ilgari surilmoqda. Mazkur g'oya uzida mavjud sharoitni "O'zbekistonda yangi bir g'oya-uchinchi renessans davri" yuzaga kelishini taminlamoqda. "Renessans" lug'aviy fransuzcha "qayta tug'ilish" degan ma'noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san'atda, ta'lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o'rta asrlar mutaassibliigidan keyin 15-16 asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo'llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o'zbek tiliga Uyg'onish davri deb o'girilgan. Buning g'oyaga aylanishi quydagicha tariflanadi. Milliy g'oya aslida muayyan xalqning oliy istiqbol maqsadini bir necha so'zlarda yoki iborada mujassam ifodalovchi tushunchalar yoki shior, iboradir.

U xalqni o'sha maqsad yo'lida birlashtiradi, safarbar etadi. Xalq barcha sa'y-harakatlarini, intilishlarini, bunyodkorlik faoliyatini unga muvofiqlashtiradi. Zarur bo'lsa, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarini, mamlakatning huquqiy, siyosiy, mafkuraviy asoslarini, ta'lim-tarbiya tizimini chuqur isloh qiladi. Milliy g'oyaning asosiy vazifalaridan biri, avvalo, xalqning jipsligini, birligini, mamlakatning hududiy yaxlitligini saqlash va mustahkamlashdir. Ikkinchidan, millatning oliy maqsadini, rivojlanish marralarini, mo'ljallarini umumiy tarzda aniqlaydi. Milliy g'oya turli iboralarda ifodalanishi mumkin. Lekin ifoda shaklidan qat'i nazar, xalqqa istiqbolni, ijtimoiy mo'ljalni ko'rsatishi shart.

Xulosa, xulosa qilib aytganda raqamli texnologiyalar ta'lim muassasasini katta darajada o'zgartirdi va ta'lim sohasida ijtimoiylashuvning yangi shakllarini talab qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // [https://uz.fundamental-economic.uz/page\\_id=1598](https://uz.fundamental-economic.uz/page_id=1598)
2. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (PF-6079-son 05.10.2020)
3. Ходжаева Д.Ф. Омонов А.А., Тугизбоев Ф.У. Проблемы, с которыми можно столкнутся при внедрении искусственного интеллекта. Научно-методический журнал "Наука, техника и образование". № 5 (80), с. 23-26
4. Пашкова А.Ф., Абдурасулова Н. А. (2022). Цифровизация образования: проблемы и перспективы. Вестник Мининского университета, 8-31, 75
5. Ходжаев В.Х. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, "Sanostandart", 2017. 79-bet.